O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2022 - yil 29 - mart 136-9-0-Q/22 Sirdaryo viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-104-sonli qarori ijrosi yuzasidan viloyatning Xovos tumanidagi mehmonxona (joylashtirish), savdo, umumiy ovqatlanish, ko‘ngilochar, turoperator va turagent xizmatlarini ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun maxsus soliq rejimi joriy etiladigan turizm hududlari chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-104-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 25-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-104-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Viloyatning Xovos tumanidagi mehmonxona (joylashtirish), savdo, umumiy ovqatlanish, ko‘ngilochar, turoperator va turagent xizmatlarini ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun maxsus soliq rejimi joriy etiladigan turizm hududlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi (Sh.Isakulov), Soliq boshqarmasi (J.G‘oyibov), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh

boshqarmasi (S.Kalonov), Xovos tuman hokimi (U.Kamolov) viloyatning Xovos tumanida ilovaga ko‘ra belgilangan turizm hududlari chegaralari (mahallalar)da mehmonxona (joylashtirish), savdo, umumiy ovqatlanish, ko‘ngilochar, turoperator va turagent xizmatlarini ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun maxsus soliq rejimi joriy etilayotganligi bo‘yicha targ‘ibot va tushuntirish ishlarini olib borsin.

4. Viloyat davlat soliq boshqarmasi (J.G‘oyibov) Soliq kodeksiga yuqoridagi imtiyozlarni qo‘llash ko‘zda tutilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgandan so‘ng ilovaga muvofiq tasdiqlangan hududlarda mehmonxona (joylashtirish), savdo, umumiy ovqatlanish, ko‘ngilochar, turoperator va turagent xizmatlarini ko‘rsatayotgan hamda shu yo‘nalishlarda yangidan tashkil etiladigan tadbirkorlik subyektlari uchun maxsus soliq rejimini qo‘llasin.

5. Ushbu qaror bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Karimov va viloyat hokimining o‘rinbosari Sh.Isakulov zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi **G'.Mirzayev**

Sirdaryo viloyat hokimining
2022 yil 29 martdagi
136-9-0-Q/22-son qaroriga
1-ilova

1-ilova

Viloyatning Xovos tumanidagi mehmonxona (joylashtirish vositalari), savdo, umumiy ovqatlanish, ko‘ngilochar, turoperator va turagent xizmatlarini ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun maxsus soliq rejimi joriy etiladigan turizm hududlari

RO‘YXATI

T/r	**Tuman nomi**	**Hudud (MFY) nomi**
1	Xovos tumani	“Xovosobod” MFY *(M-34 yo‘lining o‘ng tomoni 52-57 km.lari yo‘l bo‘yi hududi)*
2	Xovos tumani	“Chamanzor” MFY *(M-34 yo‘lining chap tomoni 147-149 km.lari o‘tkan yo‘l bo‘yi hududi)*
3	Xovos tumani	“Bunyodkor” MFY *(M-34 yo‘lining o‘ng tomoni 147-150 km.lari o‘tkan yo‘l bo‘yi hududi)*
4	Xovos tumani	“O‘zbekiston to‘kinchiligi” MFY *(A-376 yo‘lining o‘ng va chap tomoni 236-239 km.lari yo‘l bo‘yi hududi)*
5	Xovos tumani	“Oqchangal” MFY *(F-376 yo‘lining o‘ng va chap tomoni 226-232 km.lari yo‘l bo‘yi hududi)*
6	Xovos tumani	“Karvonsaroy” MFY *(M-34 yo‘lining chap tomoni 52-57 km.lari yo‘l bo‘yi hududi)*